

O'GAY ONA

(Roman)

Quyoshni bahorning boshi va kuzning adog'ida har qachongidan ko'ra qattiqroq, ko'proq suyushimizni ta'kidlashga hojat bo'lmasa kerak. Odamlar ilk bahor kuyoshini askarlikdan qaytgan o'g'lini yoki g'urbatga uzatilgan, ya'ni uzoqqa kelin bo'lib tushgan qizini kutib olgan otaona kabi qarshilaydilar. Kuzgi quyosh esa bamisoli bayram ta'tilida kelgan mehmon — loaqal yana bir kunga qolishi istalgan suyukli farzand... U bulutlar bag'ridan boqishi bilan bog'chalarga, supalarga, ayvonlarga, derazalar tubiga ko'rpachalar solinadi, suhbatlar kurilib, tikish-bichish singari qo'l yumushlariga kirishiladi.

Aprelning boshlarida, ikki qavvatli uy derazasi oldida o'tirib ham ip yumaloqlagan, hamda to'r parda uzra tushayotgan oqshomni kuzatayotgan ikki ayol aslida ko'pdan orziqib kutganlari — quyosh nurlari bois shu yerda o'tirardilar.

Tashqarida bolalar to'p o'ynamoqda. O'yinda yengilmaslik uchunmi, yoki hali isib ulgurmagan bahor havosida junjikmaslik uchunmi o'rtadagi to'p ortidan yugurishmoqdalar. Devor tubida esa ikki bolakay ularni tomosha qilib turishibdi. Biri sovg'otganidan ko'llarini qo'ltiqlariga suqib olgan, qarovsizligi ko'rinishidanoq bilinib turgan olti yoshlardagi zaifgina o'g'il bola. Ikkinchisi go'zal liboslar kiyg'izilgan, toza qiyofali, uch yoshlarga kirarkirmas qizaloq. Tanimaganlar kattasini kichigining uyida xizmat qiladigan ayolning o'g'li deb o'ylashlari mumkin va shunday gumon qilishga haqlidirlar. Chunki, bunday taxmin qilib, hukm chiqarishga istalgancha alomatlar bor, ammo boshqacha o'ylashga asos bo'ladigan dalil mavjud emas.

Aslida bu ikki bola — qarindoshlar. Qarindoshliklari ikki holatda aks etadi: biri shu onda yonmayon turishlari, ikkinchisi bir uyda yotib turishlari. Ularning shu ikkisidan boshqa barcha narsalari farqlidir. Yebichishlari, kiyinishlari va ularga qilinadigan muomala qarindosh emasliklariga dalolat bo'la oladi. Birini «bir donam, yagonam, dilporam, dilbandim» deb suyishsa, ikkinchisini «yo'qol, basharang qursin» deya quvishsa, biriga har soat jonim, ko'ngling ne tusaydi» deb murojaat etilsayu, boshqasi ochqaganini aytsa, «ochqamay o'l, zahar ye, zaqqum yut» deb javob eshitsa, birini bag'riga bosarkan, boshqasini ko'krigidan itarsa, albatta, bu hodisalar, ularning qarindosh ekaniga dalil sanalmaydi,

Olti yoshlardagi o'g'il bola bundan uch yil avval — uch yoshlarida yetim qolib, o'gay ona ko'lida shu holga tushdi: bir bola ko'tara olishi mushkul bo'lgan qahru qiyinchiliklarni, hayot achchiqliklarini totdi, tayoq yedi. Ko'rgankechirganlari ichida tamoman unutgani — ona mehri, ona shafqati... Uning uchun ana shu uch yil uch asr qadar uzoq kechdi. Shu uch yil ichida loaqal biror marta tasodifan bo'lsaham «jon bolam» degan so'zni, afsuski, eshitmadi. Uning quloqlari bunday yaxshi so'zlarga tashna, qalbi esa zor bo'ldi. Bu bolaning vazifasi kichigiga qarash, uni ovuntirish, o'ynatish, beshigini tebratish va Sanihaxonim ko'rsatgan ishlarni bajaripvdan iborat.

Hozir bu ikki qarindosh to'p o'ynayotganlarni tomosha qilishmoqda. To'g'rirog'i, kattasi tomosha qilayotgan kichigiga ko'zquloq. O'yinni ro'paradan ko'rish qulay tuyuldi. Singlisini qarshi tarafga ohista yetaklay boshladi. Ko'zi bolalar o'ynayotgan to'pda, aksiga olib to'p singlisiga kelib teshshi mumkin. U faqat shuning uchun diqqatini to'pga qaratgan, o'yinni esa tomosha qilmoqchi emas. Uzi o'ynamagach, tomoshadan ne foyda? Bu ehtiyot singlisini yaxshi ko'rgani uchunmi? Yo'q. Chunki biri har jihatdan sevgiga, ikkinchisi nafratga duchor bo'lgan qarindoshlarning bir-birini yaxshi ko'rish daryoning tepaga oqishiday gap. Unda bu harakatning sababi nimada? Bu bola o'zi yaxshi